
“Tinchlik” mahallasining ham ichki yo‘llari asfalt qilinmoqda

Ayni kunlarda Farg‘ona shahridagi mahalla fuqarolar yig‘inlarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktyabrdagi “2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-408-sonli qaroriga asosan keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

Xususan, “Tinchlik” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi ichki yo‘llarning 5 kilometr qismi asfalt qilinishi belgilangan. Hozirda yo‘llarni asfaltlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Mazkur ishlar uchun qaror asosida respublika byudjetidan 2 mlrd. so‘m mablag‘ ajratilgan.

2023-04-13 16:19:03